

20-Aprel, 2025-yil

**JADID-MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIKA SOHASIDAGI
HARAKATLARI**

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Yo'ldasheva Marjona Muhammadiyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Turkiston zaminida kechgan jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik faoliyatları va ta'lim sohasini rivojlantirish uchun qilgan ma'rifatchilik harakatlarining ahamiyati, pedagogik qarashlari, hamda jadidlarning milliy g'oya va maskura haqidagi masalalari, milliy o'zlik haqida chuqur tahlil qilinadi. Milliy o'zlik, o'zlikni anglash kabi tushunchalarga hayotimiz davomida ko'p bor dush kelamiz, va aynan mana shu maqola orgali bu tushunchalarga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, milliy o'zlik, axloqiy tarbiya.

KIRISH

Milliy o'zlik nima? Qadimgi yunon faylasufi Fales shunday degan edi: “Eng qiyini-o'zingni anglay olishingdir. O'zligingni anglashningdir. O'zligini anglagan shaxs hech qachon to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Aksincha unga xizmat qiladi”. Milliy o'zlikni anglash bu-o'z millati tarixini, o'tmishini chuqurroq bilish, o'rganish imkoniyatiga ega bo'lism, tarixini, madani-yatini, milliy an'analari va qadriyatlarini bilish, ularni rivojlantirishga harakat qilish demakdir. Milliy o'zlikini anglar ekan inson ota-onasini, oilasi, millati, butun borliq bilan munosabatlar asosida kim ekanini, tarixini, ajdodlarini bilib tanib boradi. Hayotining mazmunini, qadr-qimmati, maqsadini, sha'ni, or-nomusini anglash avvalo-Milliy o'zlikdan boshlanadi. “O'zlikni anglash deganda men-Tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni tushunaman” deydilar Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib farzandi, fuqarosi bo'la oladi. Milliy o'zlikni shakllantiradigan uchlik-O'tmis, Bugun va Kelajak. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarlarida “Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson, tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” [3] deya ta'kidlaydilar. Demak tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turib ma'naviyatga erishish mumkin emas, yangi kelajakka qadam qo'yib bo'lmaydi.

Tadqiqot usullari va materiallari. Tarixga, o'tmishga nazar solar ekanmiz, yurtimiz boshidan anchagina og'ir kunlarni kechirganiga, bugungi Mustaqilligi yo'lida ko'plab farzandlarini qurban qilganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimiz Sovet Ittifoqi tomonidan mustamlakaga aylantirilgan bir davrda xalqimiz ongiga shunday yot g'oya singdirilgan

20-Aprel, 2025-yil

ediki, u o‘z yurtida boshini baland ko‘tarib yurishi taqiqlangan edi. Va shunday bir qaltis davrda aynan turkiston zamini farzandlari, hammamizga tanish bo‘lgan Jadid-Ma’rifatparvar-larimiz hech ikkilanmay, shaxdam qadamlar ila maydonga chiqa oldilar va bu tizim noto‘g’riliqi, xalq albatta o‘qib savodli bo‘lishi haqida omma ongiga singdira oldilar. Pedagogika sohasida ilk Renessans sharqda IX-XII asrlarga to‘g’ri keladi va bu vaqtida yashagan allolamalarimiz ko‘plab ixtiolar qilib tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldira olishdi. Pedagogika sohasida ikkinchi Renessansga sharqda Temur va Temuriyzodalar yashagn davrda tamal toshi qo‘yildi va aynan pedagogikada o‘chmas iz qoldirib yangi ixtiolar, kitoblar yaratildi. Sharqda uchunchi renessans bo‘lishi mumkin edi. Aynan XX- asrning birinchi choragida, jadidlar o‘z pedagogik tizimlari va asarlari bilan tamal toshini qo‘yishga harakat qilishdi, ammo noto‘g’ri mustabit tizim bunga yo‘l qo‘ymadi.

Jadid - so‘zi arabcha tildan olingen bo‘lib “yangi usul” degan ma’noni anglatadi. Turkistonda jadid maktablarining yuzaga kelishi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog‘liqdir. 1851-yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg‘or demokratik g‘oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtirish yo‘lida qizg‘in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o‘z navbatida jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. 1897-yilga borib Turkiston o‘lkasida yangi usuldagagi mактаб ochishga muvaffaq bo‘ldi. [6]

1906 yilda A. Avloniy Mirobod mahallasida yangi usul maktabini ochiga muvaffaq bo‘ladi. [7] Uning bu maktabida diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham berilar edi. Abdulla Avloniy o‘z maktabida “axloq” ga juda katta e’tibor qaratadi va aynan fanlar doirasiga kiritadi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq-odob to‘g‘risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: «... Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilishi mukammal «axloq» kitobining yo‘qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o‘zim muallimlar jumlasidan bo‘lganligimdan manga ham ochiq ma’lum bo‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram shayx Sa’diy usulida yozmoqni, garchi og‘ir ish bo‘lsa-da, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim». [6].

Abdulla Avloniy “axloq” darslarini tashkil etish juda o‘g‘ir vazifa ekanligini tan olib 1913-yilda o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli ta’lim tarbiyaga qaratilgan o‘z asarini yaratadi. Bu asar oqrali Avloniy juda qimmatli fikrlarni ilgari suradi. Asarida pedagogika sohasida zamon talablariga mos tarzda zamonaviy pedagog yetishtirish, yangi darsliklarni yaratish va ta’lim uslublari, ko‘nikmalari uchun yangi majmualar yaratish keng o‘rin olganligini ko‘rishimiz mumkin. A. Avloniy o‘qitishda ta’lim-tarbiyaning birligiga, tarbiyada esa o‘qituvchilarning ibrat-na’munasiga ahamiyat berish shartligini ta’kidlab o‘tadi. Uning «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim» kabi darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari A. Avloniy o‘z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo‘lib tilga olgan va o‘zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida pedagogika «Pedagogika» – bola tarbiyasining fani demakdir, deb to‘g‘ri ta’rif bera olgan buyuk pedagog hamdir [6].

20-Aprel, 2025-yil

Mahmudxo‘ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo‘g‘rofiya umroniy» («Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o‘qitilgandi.

Har bir insonning millatning dunyoda borligini ko’rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotdir. Jadidlar milliy ta’limning zamini sifatida ona tili o’qitish masalasiga e’tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma’naviyatni “sut bilan kirgan” deganlaridek faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin. Tadqiqotdan olingan aniq natijalar shuni ko’rsatadiki, O’rta Osiyo jadidlarining pedagogik qarashlari ya’ni o’quvchilarga bilimlarni yetkazib berish borsidagi fikrlari bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan har bir jamiyatning ma’rifatchilik sohasi bo'yicha muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Jadidlar millatning taraqqiyotinigina emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko’rdilar. “Milliyat fikriga, bu azim quvvatga xech bir kuch bas kela olmadi”, - deb yozgan edi Yusuf Oqchura”[1; 123]

Natijalar va muhokamalar. Jadidlar mamlakatda kechayotgan ahvolni ko’rib unga qarshi bora oldilar, oliy o’quv yurtlari xalqga kerak ekanligini bilib his eta oldilar va o’zlarida bor imkoniyatdan foydalanishga harakat qildilar. Ular yillar davomida xalqimiz tomonidan unitilayotgan tarixni eslatishga, bir necha asrlar davomida umidsizlanayotgan millatimiz ruhiga umid bag’ishlashga erisha oldilar. Haqiqatdan tarixni unutmoq o’zlikni unutmoqdir, tarixni eslab yod olmoq, uni bilmoq esa o’zlikni anglamoq, o’zlikni tanimoqdir. Avloniy shaxs kamoli, millat ruhi tetik bo’lmog’I uchun ona tili muhim ekanligini xalq ongiga singdira oldi va ona tilimizga tamal toshini qo’ya oldi. Avloniy va boshqa ma’rifatparvar-jadidlarning fikricha ona tilini bilmoq, ona tilida so’zlashmoq o’z sha’nini, qadr-qimmatini yuksak tutmoqdir, milliy an’analarni rivojlantir-moqdir. Avloniy insonparvarlik qadriyatlarining in’ikosi sifatida nafosatli so’zlashuv odoblarini tarbiyalashning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha til shunchaki insonning so’lashuv vositasi emas, balki insonning bilimi, tarixi, yurti, qadriyatları, sha’ni, qadr-qimmati o’lchovidir. Har bir jadid o’zlikni bilmoq, o’zlikni anglamoq uchun ona tilisini mukammal bilish targ’ibotini ilgari suradi, chunki ona tili millatning ruhi, millatning ko’zgusidir va bu har bir bolaga yoshligidanoq ona suti bilan qon-qoniga, suyak-suyakiga singib ketadi.

Abdulla Avloniya va boshqa jadidlar milliy ongni shakllantirish uchun tarixni bilish keraklagini ta’kidlashadi. Zero inson yashashi, jamiyatni barpo etishi, millatni yuksaltirishi uchun avvalo shu millatning tarixini, o’tmishini, bu yerda yashagan ajdodlarini bilmog’i darkor. Abdulla Avloniy va ma’rifatparvar-jadidlarning avvalo pedagogik qarashlari millatning milliyligini, tarixini, tilini, milliy o’zlikini unutmaslik kerakligini ilgari surishadi.

Xulosa. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deydilar “Barchamizga ayonki “Tilda, Fikrda, Ishda-Birlik”degan ezgu g’oya bilan maydonga chiqgan jadid bobolarimiz xalqimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g’aflat botqog’idan qutqarishning asosiy yo’li - bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda deb bildilar” afsuski o’sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug’vor

20-Aprel, 2025-yil

maqsadlarni amlaga oshirishga yo'l bermadi, shu boisdan Xalqimiz ozodligi va Vatan ravnaqi yo'id aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishga alohida e'tibor berilmoqda [2]

Jadidlarimiz vatanimiz ravnaqi, taraqqiyoti uchun kurashdilar va albatta bizdan talab qilinadigan vazifa avvalo ularni unutmaslik:

Ularni darsliklaridan unumli foydalanish;

Ular tutgan yo'llarni yanada rivojlantirib ta'limda qo'llash;

Ulani meroslari darsliklarini ko'paytirib ommaga taqdim etib dars jarayonlarida foydalanishdir.

Darxaxiqat ertangi kelajakni yarratish uchun avvalo milliy o'zlikni bilish zarur. Milliy o'zlik uchlikda-o'tmish, bugun, kelajak ekan demak hammasi yana tarixga borib taqaladi. Har bir yosh ongiga, o'quvchi yoki kattalarga tarixni eslatib turish, uni unut boishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero O'tmishsiz - Kelajak Yo'q!

“Bir millatni yo'q qilish uchun uning tarixini yo'q qilmoq kerak. Tarixini bilmagan xalqni yo'qotish, mustamlaka qilish osonlashadi” deya bejizga takrorlamagan edi Iskandar Zulqarnayn. Aynan mana shu fikrni Turkistonni mustamlakaga aylantirgan Chor Rossiyasi ilgari surdi va o'z shiorlariga aylantirishdi va natijada bizni tariximizdan mosuvo qilishdi.

FOYDALALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B. Qosimov “Milliy uyg'onish davri” o'zbek adabiyoti T;Ma'naviyat.,-2004,- 123-bet.
 2. “Tarjimon”g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
 3. I.A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.// Biz kelajagimizni oz qolimiz bilan quramiz.T.7.-T.;«O'zbekiston», 1999. -B. 214-71.
 4. G. Izbulleyeva Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism darslik Buxoro «DURDONA» 2022 Onlayn adabiyotlar
- 1.<https://t.me/share/url?url=https://oyina.uz/uz/teahause/2551>
- 2 https://uza.uz/oz/posts/tilda-fikrda-ishda-birlik_555945